



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA FONETIK TERMINLAR VA ULARNING IZOHIGA DOIR AYRIM QAYDLAR

Jumayeva Taxmina

Termiz davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti talabasi

mail: taxminaj@gmail.com

+99897 837 80 86

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jahon lingvistikasida fonetik terminlarning o'rni hamda tadqiqiga doir qarashlar haqida fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, fonetik terminlarning o'zbek tilidagi akslanish, tilning diaxron va sinxron tabiatiga muvofiq tahlilga tortilgan. Har bir terminga izohlar keltirilib, misollar bilan mustahkamlangan.*

Kalit so'zlar: *Fonetik termin, fonema, urg'u, intonatsiya, aferez, genimatsiya, diftong, diarez, metateza, eliziya, assimilyatsiya, dissimilyatsiya.*

НЕКОТОРЫЕ ОТМЕТКИ О ФОНЕТИЧЕСКИХ ТЕРМИНАХ И ИХ ОБЪЯСНЕНИИ В УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Джумаева Тахмина

Термезский государственный университет

Студентка факультета иностранной филологии

mail: takhimaj@gmail.com

+99897 837 80 86

Аннотация. *В статье представлены взгляды на роль и изучение фонетических терминов в мировой лингвистике. Проанализировано отражение фонетических терминов в узбекском языке с учетом диахронического и синхронического характера языка. Каждый термин объясняется и подкрепляется примерами.*

Ключевые слова: *Фонетический термин, фонема, ударение, интонация, афerezис, генимация, дифтонг, диэрезис, метатеза, элизиya, ассимиляция, диссимиляция.*

SOME NOTES ON PHONETIC TERMS AND THEIR EXPLANATION IN UZBEK LINGUISTICS

Takhmina Jumaeva

Termez State University Student of the Faculty of Foreign Philology

Email: takhimaj@gmail.com

+99897 837 80 86





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Abstract. *The article presents views on the role and study of phonetic terms in world linguistics. It analyzes the reflection of phonetic terms in the Uzbek language, taking into account the diachronic and synchronic nature of the language. Each term is explained and supported by examples.*

Keywords: *Phonetic term, phoneme, stress, intonation, apheresis, genimation, diphthong, diaeresis, metathesis, elision, assimilation, dissimilation.*

Har bir soha o'ziga xos terminlarni qamrab olgan bo'lib, ularning fazifasi ilmiy tushunchalarni ifodalashdir. Tilshunoslik fanining muhim bo'g'inlaridan biri bo'lgan - fonetika ham shular qatorida o'z terminlar sistemasiga ega. Fonetik terminlar yordamida tilning tovush tizimi, ularning xususiyatlari va ishlash qonuniyatlari izohlanadi. Shu bois fonetik atamalarni izohlash va to'g'ri foydalanish o'zbek tilshunosligida asosiy vazifa bo'lib qolmoqda. O'zbek tilshunosligi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, fonetik atamalar turkli davrlarda shakllangan va rivojlanib kelganligini kuzatishimiz mumkin. 20 -asrning o'rtalaridan boshlab o'zbek fonetikasiga oid ilmiy izlanishlarda fonema, bo'g'in, urg'u, intonatsiya kabi terminlar keng qo'llana boshladi [1]. Keyinchalik ular lug'atlar, darsliklar va qo'llanmalarda ilmiy izohga ega bo'ldi. Fonetik birliklarning fizik-akustik, anatomik-firziologik va lingvistik -funktional asoslarni o'rganish, ularning til mehanizmidagi ro'lini aniqlashdan iborat. Bugungi o'zbek adabiy fanida fonetik hodisalar ma'lum bir holda imloviy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Zero, biz o'zbek tilshunosligini terminalohiya sohasida o'rganar ekanmiz reallikdan yiroqlashish holatini ham inkor etmaslik joizdir.

Fonetika [grekcha phone - tovush, - tike - fan'so'zlaridan] inson nutqini ifodalash uchun zarur bo'lgan tovushlar va ularning vositalari haqidagi tilshunoslik sohasidir. Bu masala doirasida Henry Sweet (1845-1912) nafaqat fonetika fanini, balki fonetik terminologiyani ham shakillantirgan birinchi ingliz olimlaridan biridir. Vowel (unli), consonant (undosh), stress, (urg'u), intonation (intonatsiya), assimilation (assimilyatsiya) kabi terminlarni aniq ta'riflar bilan izohlab, ular uchun ilmiy asos yaratgan. 1877-yil chop etilgan "A Handbook of Phonetics" kitobida fonetik terminlarni qat'iy ilmiy ma'noda ishatgan. U phoneme, articulation, place of articulation kabi terminlarni keng joriy qilgan [2].

O'zbek tilshunosligida fonetik terminlarni doirasida ilk tadqiqotlar G'ozim Olim Yunusov (1887-1944) ishlarida ko'zga tashlanadi va u rus va turkiy manbalarni taqqoslab o'zbek tilidagi muqobillarni taklif etadi. Nutq tovushlari va ularning vositalari bo'lgan bo'g'in, urg'u, intonatsiya murakkab va ko'p qirrali xususiyatlar hisoblanadi.

Fonetikaning obyekti - tilning tovush maydoni hisoblanib fonetik qurilishi asosiy jihatlaridan biridir. Tilning tovush tomoni esa nutq tovushlari, bo'g'in, urg'u, ohang ya'ni intonatsiya metodikasi kabi birliklarni o'z ichiga oladi. Har qanday tilning fonetik birliklari dastlab ikki guruhga - segment va supersegment birliklarga bo'linadi. Segment birliklarga nutq tovushlari va bo'g'in kiradi. Bunday birliklar so'z yoki morfemalar tarkibida birin-ketin keladi, yotiq [gorizontal] yo'nalishda bir-biriga ulanib zanjirsimon tartibda joylashadi. Masalan, daftar so'zida 6 ta tovush, 2 bo'g'in ya'ni segment tovushlar bor, shu tariqa so'z



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



qismlari hisob-kitobi olib boriladi. Supersgment birliklarga urg‘u, ohang, melodika, pauzalar kiradi. Bunday birliklar so‘zga frazaga, gapga yoki nutqqa yaxlit aloqador bo‘lib, ularni so‘z, gap yoki nutqdan ajralgan holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun ularni ustama hodisa deb nomlanish holatlari ham uchraydi. Fonetika fizika [akustika qismi] va fiziologiya fanlari bilan ham yaqin munosabatdadir. Fonetika tovushlarni eshtilish tomonini o‘rganishda akustikaga, talaffus qilinishi, aytilishi, hosil qilinish tomonlarini o‘rganishda fiziologiyaga tayanib ish ko‘radi. Bundan tashqari, u adabiyotshunoslik [hijolar, o‘lchov metrika va ta’sirli o‘qish kabi] va ijtimoiy fanlar bilan doim aloqada bo‘ladi. Nutq tovushlarini turli tomondan o‘rganish mumkin: tarixiy nuqtai nazardan, qiyosiy tomondan, hozirgi o‘zbek tili va mahaliy dialektlarning nutq tovushlarini taqqoslash jihatidan, nutq tovushlari turli asboblarda yordamida experiment qilish yo‘li bilan va boshqalar[3]. Shunga ko‘ra, fonetika nazariy planda umumiy fonetika va xususiy fonetika, amaliy planda esa tarixiy fonetika, qiyosiy fonetika, tavsifiy fonetika, eksperimental fonetika kabi bir nechta sohalariga bo‘linadi. Umumiy fonetika turli tipdagi tillarning nutq tovushlarining xilma-xilligini o‘rganuvchi bilim. U turli sistemalar tillarida inson nutq apparatining tovush hosil qilish imkoniyatlarini, nutq organlari yordamida tovushlarni hosil qilish usullari va ulardan nutqda foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish kabi masalalar bilan shug‘ullanadi. Xususiy fonetika muayyan bir tilning fonetik bazasini, fonetik qonuniyatlarini umumiy fonetika qonuniyatlariga bo‘ysinadi va uning qonuniyatlari asosida faoliyat olib boradi. U turli farazlar, gipotezalar, postulatlardan xoli bo‘ladi. Muayyan tilning artikulyatsion bazasi, uning artikulyatsion imkoniyati, akustik refrentatsion usuli asosida ish ko‘radi. Tarixiy fonetika ma’lum bir tilning tovush sistemasini tarixiy rivozlanishda o‘rganadi, ya’ni til taraqqiyotining turli davrlarida tovush sistemasidagi tarixiy o‘zgarishlarni ularning o‘zgarish sabablarini o‘rganadi. Turli davrdagi yozma yodgorliklar tarixiy fonetika uchun manba bo‘ladi. Tovushlarning tadrijiy taraqqiyoti shu tilda gaplashuvchi xalqning tarixi bilan bog‘liq ravishda o‘rganiladi, tarixiy sabablari aniqlanadi. Masalan, o‘zbek tilida “V” fonemasining ikkita - lab-lab va lab-tish varianti bor. Tarixiy fonetika ‘v’ fonemasidagi bu belgilarning kelib chiqish sabablarini quyidagicha izohlaydi: lab-lab varianti (v) o‘zbek tili uchun birlamchi va qadimiy fonema hisoblanib, hozirgi kunda sheva tarkibida, asosan, singarmonizmni saqlagan qipchoq va og‘uz lahjasida saqlangan, ya’ni sof o‘zbekcha va asl turkcha so‘zlarda bu tovushning lab-lab varianti ishlatiladi: vo‘t, vo‘tin ov, suv, yayov, qovun, haydov, yaylov va hk. O‘zbek tilining keyingi paytda boshqa tillar (asosan, rus tilida o‘zlashma ta’sirida) bilan munosabati kuchayishi natijasida bu fonemalarning lab-tish varianti yuzaga kelgan[3]. Bu variant boshqa tillarda, xususan, arab, fors va rus tillarida o‘zlashgan: va’da, vido vint, vagon, vaqt, viloyat kabi so‘zlarda uchraydi.

Qiyosiy fonetika qardosh tillarning tovush sistemasi munosabatlarini o‘rganadi. Masalan turkiy tillarning qiyosiy fonetikasi, slavyan tillarning qiyosiy fonetikasi kabi. Bunda bir qancha qardosh tillarning yoki bir qancha dielekt va shevalarning materiallari - unli va undoshlar, fonetik o‘zgarishlar va shu kabilar bir-biriga qiyoslash orqali o‘rganiladi. Masalan, singarmonizm qonuni hozirgi o‘zbek adabiy tilda buzilgan, lekin boshqa turkiy



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



tillarda, shuningdek, ayrim o‘zbek dialektlarda to‘la saqlangan. Qiyosiy fonetika umumiy va xususiy fonetika oralig‘idagi vaziyatni egallaydi. Nutqda tovushlar alohida -alohida talaffus etilmaydi. Nutq quyidagi fonetik birliklardan iborat:

1) fraza; 2) takt; 3) bo‘g‘in; 4) tovush. 1. Jumla (faza) - nutqning yirik mustaqil birligi bo‘lib aloqa vositasi sanaladi. U o‘ziga xos intonatsion birlikdir. Har bir jumla chuqur to‘xtam bilan bo‘linib turadi. 2. Takt - jumlaning birinchi bo‘lagi bo‘lib, bir urg‘u yordamida bir yoki bir nechta bo‘g‘inlarning ulanishidan tashil topadi. Ko‘p tillarda urg‘u mustaqil ma‘noli so‘zlarning o‘zida bo‘lganligi uchun ularning har qaysisi bir takt bo‘ladi[4]. Mustaqil ma‘noli so‘zlardan oldin kelgan yordamchi so‘zlarda proklitika (prokliza), mustaqil so‘zlardan keyin kelgan yordamchi so‘zlar enklitika (enkliza) deyiladi. Bo‘g‘in - nutqning bir bo‘lagidir. Bo‘g‘in bir yoki bir havo zarbi bilab aytilishdan hosil bo‘ladi. Ba‘zi tillarda bir bo‘g‘in tarkibida ikki va undan ortiq unli ishtirok etishi mumkin. Bu hodisa tilshunoslikda diftong atamasi bilan qo‘laniladi. Diftong yunoncha so‘z bo‘lib, “qo‘sh tovush” degan ma‘noni bildiradi. O‘zbek tilida bir unli bir tovushni hosil qilgani tufayli bu tilda monoftong (bir tovush) hodisasi xosdir. Bundan tashqari, ba‘zi tillarda bir bo‘g‘inda uch unli tovushning birikib bo‘g‘in hosil qilish hodisasi ham uchraydi. Bu diftong (yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib “uch unli” degan ma‘noni beradi). Chunonchi, ingliz tilida eyes-ko‘zlar, tennis player- tennischi, year - yil kabi. Nutqning eng kichik birligi bu tovushdir. Bo‘g‘inlar esa tovushlarga bo‘linadi[4].

Tilshunoslik tarixida tovush almashuvi nazaryasining ishlanishida I.A.Boduen de Kurtenelar alohida o‘rin egallaydi. Ular tilshunoslik tarixida birinchi bo‘lib tovush o‘zgarishlari va almashuvlarini bir-biridan farqlab o‘rgangan. Olim tildagi balcha tovush almashuvlarini ikki kategoriyada bo‘ladi. 1) kombinator xoslangan alternatsiyalar 2) traditsiyaga asoslangan alternatsiyalar. U birinchi tipdagi alternatsiyalarni fonetika, ikkinchi tipdagi esa morfologiyaga kiritish lozimligini tavsiya qiladi.

METATEZA - metateza har qanday tilning ham diaxron ham sinxron holati uchun mansub bo‘lib, bu jarayonlardan o‘zbek tili ham mustasno emas. Ayni tilning ikki davr oralig‘idagi leksema nomemasining o‘zgaruviga olib kelishi mumkin. Masalan, o‘granmoq - o‘rganmoq yog‘mir - yomg‘ir, shuningdek, dialekt tarkibida: naxo‘t -no‘xat (Boysun shevasi), shoytan - shayton (qipchoq lahjasi) va hokazo. Shu bilan birgalikda, o‘zbek tilining hozirgi holatida qo‘llanuvchi metateza yordamida hosil bo‘lgan leksema nomemasining variantlari ham mavjud. Misol uchun, daryo - dayro, fayrod - payrad, tuproq - turpoq, to‘g‘ramoq - to‘rg‘amoq, kirpik - kiprik va boshq[5].

ELIZIYA - qator kelgan har xil turdagi ikki unli birini tushib qolishini ifodalovchi hodisa bo‘lsa, sinerezis esa qator kelgan unli larning orfoepik nuqtada bir unliga aylanishi hisoblanadi, har ikki jarayon o‘zida tushishni qamraydi va shu borada umumiylik hosil qiladi. Ana shu xususiyatlari bilan bu hodisalar bir-biridan farq qiladi. Birinchi so‘z oxirgi unlining ikkinchi so‘z boshidagi unli bilan to‘qnashishi natijasida tushib qolishi hodisasi - eliziya hisoblanadi. Masalan, boromoq (bora olmoq), yozolmoq (yoza olmoq), bekoyim



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



(beka oyim), mang'it shevasida yashulli (yashiulli), yoshi katta (xo'jeli/xo'jaeli ad.t.) va boshqalar.

ASSIMILYATSIYA (yunoncha *assimilatio* - o'xshab ketish) so'z tarkibidagi tovushlarning o'zaro ta'siri natijasida birinchi ikkinchisiga o'xshashlik tomon o'zgarishi. Masalan, ishni - ishshi (Toshkent shevasi), ochdi - ochti (Surx.shevasi), otdan - ottan, otni - otti, bizni - bizzi, ketdi - ketti, kabi. Assimilyatsiya hodisasi yo'nalishga qarab ikkiga bo'linadi: 1) **Progressiv assimilyatsiya** - oldingi tovushning keyingi tovushni o'ziga moslashtirishi: kedti - ketti (Āta tōlip tāšip keldi. ujdā tōpālān bōlip ketti: tōrt bālası jūgurıp kelip qušoyīga ātildi. Ātaniñ kōzi narigı xāna ešigıda m...), akgan - ekkan kabi; 2) **regressiv assimilyatsiya** - keyingi tovushning oldingi tovushni o'ziga moslashtirishi: taqsimot (taxsimot), ulug'sifat (uluxsifat), o'taketgan (o'taketkan), o'qchi (o'xchi), tanbur (tambur), so'zlarida regressiv assimilyatsiya kuzatiladi. Shuningdek, surnay (sunnay), karnay (kannay), tipirlatmoq (tipillatmoq), mahkam (makkam) (Boysun shevasida) kabilar to'la regressiv kontrakt assimilyatsiyaga yaqqol misodir. Tovushning o'zgarish darajasiga ko'ra assimilyatsiya yana ikki turga bo'linadi: 1) **To'lliq assimilyatsiya** - kuchli va kuchsiz pozitsiyadagi tovushlarning bir-biriga aynan moslashuvi, kissa- kista kabi; 2) **to'liqsiz assimilyatsiya** - kuchli va kuchsiz pozitsiyadagi tovushlarning bir-biriga qisman moslashuvi: tanbur - tambur kabi, shanba - shamba kabi. **Dissimilyatsiya** (lot.dissimilatio - noo'xshash) - so'zdagi bir xil yoki o'xshash tovushlardan birining artikulyatsion-akustik jihatdan boshqa bir tovush tomon o'zgarishi. Masalan, zarur<zarul, zarar<zaral, damba <danba, musulmon < musurmon, ambar < anbar kabi. Tovushning o'zgarish darajasiga ko'ra dissimilyatsiya yana ikki turga bo'linadi: 1) **To'lliq dissimilyatsiya** - ikkita bir xil tovushdan birini noo'xshash tovushga aylanishi: (kissa - kista) kabi; 2) **to'liqsiz dissimilyatsiya** - so'z tarkibidagi tovushning artikulyatsion xususiyatlaridan ayrimlarini o'zgarishi: uchta - ushta kabi. **Diazera** - so'z tarkibidagi undosh tovushlarning tushib qolishi. Masalan, go'sht < go'sh, do'st < do's, sust < sus, to'rt < to'r kabi. Masalan: šu pajt bājdıñ ulı šu kambayāldıñ ujiga ötipti, kāmbayāl uñā göš bermäpti,

AFEREZIS - oldingi so'zning so'nggi tovushi ta'sirida keyingi so'z boshidagi tovushning tushishi: ne uchun < nechun, mulla aka < mullaka kabi. **GEMINATSIYA** (qo'sh undoshlilik) - so'z tarkibida ikkita bir xil undoshning qavatlanishi: rosa < rossa, toza < tozza, maza < mazza kabilar bo'lib, emotsional ekspressivlik va xalq nutqida nisbatan ko'proq qo'llanishi kuzatiladi[5].

Xulosa qilib aytganda, bu kabi fonetik terminlarning ishlatilishi hamda o'zbek tilshunosligida qo'llanishi umumtilshunoslik qonuniyatlari bilan chambarchas bog'liqdir.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. – 368 b.
2. Abduazizov A. A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. – 280 b.
3. Nabiyeva D. A., Zokirova H. R. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. -256 b.
4. Sayfullayeva R. R., Abduzalova M. Q., Mamadaliyeva N. S., Yo'ldosheva D. N. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Tafakkur, 2011. – 320 b.
5. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. – 240 b.

